Annotatsiya: Milliy innovatsion tizimni (MIT) rivojlantirishda oliy ta'lim muassasalarining innovatsion tizimini yaratish, xalqaro aloqalarni rivojlantirish va o'zaro tajriba almashish, yuqori malakali mutxassis kadrlar tayyorlashda oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasining innovatsion tizimini yo'lga qo'yish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim va fani yutuqlarining rolini oshirish, milliy innovatsion tizimni rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy innovatsion tizimni shakllanishida oliy ta'lim muassasalarining innovatsion rivojlanish prinsiplari tadqiq e'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim xozmatlari, oliy ta'lim muassasalari, innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik, milliy iqtisodiyot, samaradorlik.

Abstract: Creation of an innovative system of higher education institutions in the development of the national innovation system (NIS), development of international relations and exchange of mutual experience, creation of an innovative system for integrating higher education, science and production in the training of highly qualified specialists, increasing the role of higher education and scientific achievements in the sustainable development of the economy, the development of a mechanism for the development of a national innovation system is one of the priority areas of scientific research in this direction. This article examines the principles of innovative development of higher educational institutions in the context of the formation of a national innovation system.

Key words: educational services, higher education institutions, innovative development, competitiveness, national economy, efficiency.

Аннотация: Создание инновационной системы высших учебных заведений в развитии национальной инновационной системы (НИС), развитие международных связей и обмена взаимным опытом, создание инновационной системы интеграции высшего образования, науки и производства в подготовке высококвалифицированных специалистов, повышение роли высшего образования и научных достижений в устойчивом развитии экономики, разработка механизма развития национальной инновационной системы является одним из приоритетных направлений научных исследований в этой направлении. В данной статье исследованы принципы инновационного развития высших учебных заведений в условиях формирования национальной инновационной системы.

Ключевые слова: образовательные услуги, высшие учебные заведения, инновационное развитие, конкурентоспособность, национальная экономика, эффективность.

KIRISH

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsion yo'lga o'tkazish barqaror iqtisodiy o'sish va inson shaxsi taraqqiyotining muhim omili bo'lib, ilm-fan, texnika va yuqori texnologiyalar sohasida innovatsion g'oyalarni yaratish va ularni ichki va tashqi bozorga chiqarishga qodir yuqori malakali kadrlarni tayyorlashni talab qiladi. Ta'lim tizimiga kelsak, mazkur innovatsion faoliyat unda sohaning o'ta ahamiyatli ajralmas elementi sifatida doimiy rivojlanish uchun zarur shart bo'lishi kerak va bu faoliyat milliy innovatsion tizimning shakllanishida alohida ahamiyatga egadir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bilan bog'liq holda davlatning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari barcha sohalarda milliy innovatsion tizimni shakllantirishga har tomonlama bog'liq bo'ladi. Oxirigi yillarda jhon miqyosida YalMning 60% ulushini rivojlangan mamlakatlardagi innovatsion texnologiyalar, mahsulotlar va qurilmalarning tashkil etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasida "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar,



ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur", deb ta'kidlashlari asnosida mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va qisqa muddat ichida uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga olib chiqish uchun innovatsiyaning tub mohiyati ochib berilgan ^[1]. Darhaqiqat O'zbekiston sharoitida iqtisodiyotdagi innovatsion jarayonlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi tegishli me'yoriy-xuquqiy hujjatlar qabul qilinishi va innovatsion faoliyatni rag'batlantiruvchi aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilishi milliy innovatsion tizimini shakllantirishga asos bo'lmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy maqsadlaridan biri ustuvor strategik yo'nalishlarni tanlab olishdan iborat. Bunda oliy ta'lim faoliyati orqali mutaxassis kadrlar tayyorlash va unda amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqotlarning uzuksizligi asosida samarali natijalarini amaliyotga joriy qilish jarayonini o'z ichiga olgan milliy innovatsion tizimni (MIT) yaratish mamlakat iqtisodiyotining dolzarb masalasi hisoblanadi. Bunday tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun bugun nafaqat salohiyatli ilm-fan, ta'lim tizimi va ishlab chiqarish, balki institutsional sharoitlarning butun bir majmuasi mavjud bo'lishi talab etilmoqda.

Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, milliy innovatsion tizim (MIT) kontseptsiyasi ta'lim va fandagi yangi tushuncha bo'lib, bunda davlat, xususiy va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar hamda mexanizmlar yig'indisi aks topadi. Bu klasterli umumlashma esa yangi bilimlarni va texnologiyalarni yaratish, o'zlashtirish, keng yoyishga qaratilgan tizimni tashkil etadi. I.S.Tuxlievning qayd etishicha, MIT mamlakatning milliy ustuvor strategiyasini amalga oshirish maqsadida davlat boshqaruv organlarining hamda tadbirkorlik sektoridagi barcha tashkilotlarning fan va texnologiyalarning ilg'or yutuqlaridan keng foydalanuvchi iqtisodiyot sohalaridagi xatti-harakatlarini birlashtirilishini ta'minlaydi.

Adabiyotlarda MIT haqida aniq ta'rif berilmagan. Dalatlarning MITlari shakllanishi va mohiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Mamlakatlarning strategik rivojlantirish reja yoki kontseptsiyasiga ko'a MIT oldiga tegishli maqsadlar qo'yiladi va belgilangan vazifalar asosida qo'yilgan maqsadlar amalga oshiriladi. Masalan, Evropalik ekspertlarning tahlili va bergan bahasiga ko'ra shuni qayd etish mumkinki, Frantsiyada mamlakatning asosiy strategik yo'nalishi asosida MIT oldiga qo'shimcha ishchi o'rinlarini tashkil etish vazifasi qo'yilgan, Germaniyaning asosiy strategik rejasiga ko'ra esa ilg'or texnologiyalarni rivojlantirish vazifasi belgilanganligi qayd etilgan.

Shuningdek, Milliy innovatsion tizimni shakllantirish va rivojlantirish masalalari A.F.Rasulev ^[2], N.M.Maxmudov ^[3], I.S.Tuxliyev ^[4], Q.Sharipov ^[5] va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Lekin shuni qayd etish kerakki, milliy innovatsion tizimni shakllantirish va rivojlantirishda mamlakatimizda milliy innovatsion tizim omillarining o'zaro aloqalari hamda bu o'rinda oliy ta'lim tizimining roli etarlicha tadqiq etilmagan.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari tajribasi ko'rsatadiki, iqtisodiyotning innovatsion modeli asosi ta'lim tizimini rivojlantirish bo'lib, u innovatsion jarayonlarning barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli amalga oshira oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashning manbai hisoblanadi ^[6].

Innovatsiya bilimlarni iqtisodiy resursga aylantirishning asosiy shakli va bilimlar iqtisodiyotining muhim xususiyati hisoblanadi. Bu zamonaviy sharoitda - texnologik va axborot inqilobi davrida faoliyatning barcha sohalarini rivojlantirishning tuganmas manbai bo'lgan innovatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda innovatsiya iqtisodiy o'sishning muhim omili va korxonalar, mintaqalar va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini belgilovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Innovatsion menejment asoschisi Y.Shumpeter "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" kitobida innovatsiyaning beshta asosiy yo'nalishi bayon etilgan: "yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi texnologik jarayonlar yoki bozorni yangicha qo'llab-quvvatlash, yangi xususiyatlarga ega mahsulotlarni kiritish, yangi xom ashyolardan foydalanish, ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning logistikasini o'zgartirish, yangi bozorlarning paydo bo'lishi" ^[7]. Y.Shumpeterning so'zlariga ko'ra, innovatsiya—bu "...ishlab chiqarish omillarining tadbirkorlik ruhiga asoslangan yangi ilmiy va tashkiliy birikmasi. Bu yangi sinov yoki sinab ko'rilmagan yangi tovarlar yoki usullar yoki yangi bozor uchun ishlab chiqarish, shuningdek, yangi ishlab chiqarish vositalaridan foydalangan holdagi ishlab chiqarishdir". Y.Shumpeterning iqtisodiy qarashlari zamonaviy innovatsion nazariyaning asosiy metodik tayanchiga aylandi hamda kelgusida qator olim va tadqiqotchilarning ishlarida rivojlantirildi.

Zamonaviy tadqiqotlarda "innovatsiya" atamasi tadqiqot predmetidan kelib chiqqan holda turlicha izohlanadi. Masalan, taniqli venger olimi B.Santo innovatsiyalarni jarayonga yondashuv va uning iqtisodiy ahamiyati nuqtai nazaridan izohlaydi. Uning talqiniga ko'ra, innovatsiya "...bu g'oyalar va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali o'z xususiyatlariga ko'ra eng yaxshi bo'lgan mahsulotlarni, texnologiyalarni yaratishga olib keladigan, iqtisodiy manfaat, foyda keltiradigan narsalarga yo'naltirilgan jamoaviy texnik va iqtisodiy jarayondir" ^[8].

A.B.Titov ham innovatsiyani "...ixtiro yoki g'oyaning iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan jarayoni", deb hisoblaydi ^[9]. Darhaqiqat, zamonaviy sharoitda innovatsiyalar kiritilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish, ularni rivojlantirish va joriy etishning muhim shartidir.



V.G.Medinskiy va S.V.Ildemenovlar o'z tadqiqotlarida innovatsiyani "...ilmiy tadqiqot yoki ixtiro natijasida ishlab chiqarishga kiritilgan, oldingi analogdan sifat jihatidan farq qiladigan ob'ekt" deb tushunadilar ^[10].

Olimlarning "innovatsiya" atamasiga bergan izohlariga qaraganda iqtisodiy faoliyat olib borayotgan ayrim sub'ektlar uni asosan tijoratlashtirish yoki g'oyalardan foyda olish, deb torroq miqyosda tushunadilar. Bunda unga ixtirolar bilan tenglashadigan, tijorat maqsadlarda amalga oshirilishi shart bo'lmagan jarayon deb qaraydilar.

Biz innovatsiya tushunchasini yangi ilmiy bilimlarni yaratishga yo'naltirilgan, yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar olish yoxud ular bilan bog'liq tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini tatbiq etish maqsadidagi texnologik jarayonlar deya izohlashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda "innovatsiya" tushunchasi muayyan maqsad va faoliyatga qarab turli xil ma'nolarga ega bo'lishi mumkinligi ko'zda tutiladi. Texnologiyalar, individual jarayonlar, menejment, moliya, shuningdek, ulardagi o'zgarishlarga erishish usullarini aks ettirish uchun innovatsiyalardan keng foydalaniladi.

Innovatsiyaning operatsion tabiati "innovatsion jarayon" tushunchasida aks ettiriladi. Shunday qilib, innovatsion loyihalarni boshqarishning atamalar lug'atida berilgan ta'rifiga muvofiq ^[11], innovatsion jarayon quyidagilarni anglatadi:

1. Texnik g'oya yoki yangi texnologiyani yaratishdan sanoat maqsadlarida foydalanishgacha, yangi mahsulotni olish va uni tijoratlashtirishga qadar bo'lgan kompleks ishlar;
2. Yangi bilimni yaratish, uni ishlab chiqarishga joriy qilish va butun iqtisodiyotga tatbiq etish, shuningdek, ijtimoiy va moddiylikdagi ushbu jarayon bilan bog'liq o'zgarishlar. Innovatsion jarayonning barcha davrlardagi samaradorligi uning bosqichlari yaxlit birlashishiga va etarli mablag' bilan ta'minlanishiga bog'liq.

Innovatsion menejment sohasidagi taniqli olim I.T.Balabanov innovatsion jarayonni "... tugallangan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yoki bozorda sotiladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amalda qo'llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishidagi tugallangan ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar natijalarini yoki boshqa ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqishga, amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayon, shuningdek, tegishli qo'shimcha tadqiqotlar va ishlanmalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi", - deb qayd etadi ^[12].

Innovatsion jarayon innovatsion faoliyat bilan chambarchas bog'liq, jumladan, faoliyat innovatsion jarayonda innovatsiyalarni yaratishga qaraganda ahamiyatliroq bo'lgan yangiliklarni tarqatishda o'ta muhimdir.

K.P.Yankovskiy va I.F.Muxarlarning fikrlaricha innovatsion faoliyat "...innovatsion jarayon doirasidagi faoliyat, shu jumladan, marketing tadqiqotlari, yangi iste'molchilarni qidirish, raqobatdosh firmalar mahsulotlarining raqobat muhitini va iste'mol xususiyatlarini axborot bilan ta'minlash, innovatsion g'oyalar va echimlarni izlash, shuningdek, innovatsion loyihani amalga oshirish va moliyalashtirish bo'yicha sherikchilikdir", - degan fikr asosida izohlaydi ^[13].

O'zbekiston Respublikasida ko'plab olimlar innovatsiyalarni o'rganish va ulardan iqtisodiyotning turli tarmoqlari va sohalarida foydalanish bilan shug'ullanmoqdalar. B.Usmonov va F.Rahimovlarning fikricha "innovatsiya – bu mutlaqo yangi raqobatbardosh mahsulot, texnologiya va mehnatni, ishlab chiqarishni va boshqaruvni tashkil qilishning yangi usullarini yaratish, ishlab chiqarish va tarqatish jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy samarani olishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasidir" deb ta'kidlamogda ^[14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy manbalarda o'z aksini topgan ta'lim xizmatlari bozorining milliy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanish masalalariga taaluqli empirik va konseptual tadqiqotlar o'rganildi va ulardagi ilmiy yondashuvlar tizimlashtirildi. Shuningdek, tadqiqot ishida tizimli tahlil, mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil va guruhlash usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borgan tadqiqotlarmiz natijalari asosida, biz quyidagi innovatsion guruhlar xizmat ko'rsatish sohasi uchun harakterli ekanligini aniqladik:

- 1) **texnologik innovatsiyalar** – xizmatlarni taqdim etish, yangi xizmatlarni taqdim etish uchun yangi uskunalarni joriy etish, boshqa sohalarida yangi turdosh mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalari sohasidagi innovatsiyalar;
- 2) **servis innovatsiyalari** – xizmatlarning iste'mol qiymatini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibi va turlarini o'zgartirish, xizmatlarning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash;



- 3) **ijtimoiy-iqtisodiy** – aholining mehnat sharoitlari va hayot sifatini yaxshilashga hissa qo‘shadigan xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalar faoliyati uchun ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarining o‘zgarishi;
- 4) **moliyaviy** – xizmatlar sohasiga moliyalashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun yangi moliyaviy vositalar va texnologiyalarni yaratish;
- 5) **marketing** – bu marketingning yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan usullari: mahsulot dizaynini o‘zgartirish va qadoqlashdagi jiddiy o‘zgarishlar, mahsulotlar (xizmatlar)ni sotish va namoyish qilishning yangi usullarini qo‘llash, ularni bozorlarga yo‘naltirish va reklama qilish, yangi narxlar strategiyasini shakllantirish.

Bozor munosabatlarini chuqurlashtirish sharoitida ushbu turdagi innovatsiyalar iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarida muvaffaqiyatli bo‘lishi mumkin. Tadqiqotining asosiy predmeti oliy ta‘lim sohasidagi innovatsiyalar rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy jihatlaridir. Shuning uchun, ushbu turdagi innovatsiyalarni mahalliy va xorijiy olim-tadqiqotchilar ishlaridan tanqidiy-tahliliy o‘rganish maqsad qilib olingan.

Ta‘lim iqtisodiyoti sohasidagi taniqli olim S.A.Belyakov ta‘limdagi innovatsiyani “...o‘quv jarayonini optimallashtirish, uning sifatini yaxshilash yoki o‘quvchilarga materialni o‘rganish uchun qulay sharoitlarni yaratish maqsadida mavjud muammoli vaziyatni hal qilishga qaratilgan yangilik” sifatida talqin qiladi.

O‘z navbatida, A.I.Kochetov ta‘limdagi innovatsiyalarni “...pedagogik faoliyatni yangilashning yaxlit nazariy, texnologik va metodologik kontseptsiyasi, uning belgilangan darajaga ko‘tarilishini ta‘minlaydi”, deb ta‘riflaydi^[15].

OTM innovatsion faoliyatining asosiy maqsadi mehnat bozori talablariga javob beradigan, biznesni tashkil etish va muayyan ishlab chiqarish muhitida ishlashda maxsus jihatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy sohada ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qodir yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.

OTMlarning innovatsion faoliyati bilimlar, texnologiyalarni tijoratlashtirish muammolarini hal qiladi va ilmiy-pedagogik kadrlarning oliy ta‘lim muassasi innovatsion infratuzilmasi orqali bozor bilan o‘zaro munosabatini taklif etadi.

OTM rivojlanishi innovatsion modeli raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini ta‘minlashning asosiy omili sifatida o‘quv jarayoniga innovatsiyalarni kiritishni o‘z ichiga oladi. Kadrlarni o‘qitish sifati tadqiqotlarning rivojlanishi, muassasaning innovatsion faoliyati va talabalarni ilmiy izlanishlarga jalb qilish bilan chambarchas bog‘liq. Shubhasiz, ilmiy-tadqiqot ishlari va innovatsion loyihalarda talabalarning ishtirokisiz zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni sifatli tayyorlash mumkin emas.

O‘z navbatida OTMdagi innovatsion jarayon uchta asosiy elementni qamrab olishini ko‘zda tutish lozim: innovatsiyalarni yaratish, moslashtirish va qo‘llash. Ta‘kidlash lozimki, innovatsiyaning asosiy va eng muhim mezon bu samaradorlikdir. Bu shuni anglatadiki, oliy ta‘lim tizimidagi har qanday innovatsiya o‘quv jarayoni samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Shu sababli, innovatsion o‘quv jarayoni bu zarur innovatsiyalar to‘plamini amalga oshiradigan va uning samaradorligini oshirishga imkon beradigan jarayon ekanligini ta‘kidlashimiz mumkin.

Shunday qilib, OTMning innovatsion faoliyati bilim, ta‘lim texnologiyalari, o‘qitish usullari sohasida innovatsiyalarni yaratish va joriy etishdan iborat bo‘lib, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish – milliy iqtisodiyotning turli sohalariga uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iborat.


Zamonaviy fan va amaliyotning eng muhim vazifalaridan biri OTMda innovatsiyalarning asosiy turlarini ta‘lim xizmatlari bozori sub’ektlari sifatida aniqlashdir. Olimlar orasida hali ham OTMda innovatsiyalar tasnifiga yagona yondashuv mavjud emas.

Shunday qilib, S.A.Belyakov va A.A.Ivanovalar oliy ta‘lim tizimida quyidagi innovatsiya turlariga urg‘u berganlar^[16]:

- **predmetlar ichidagi innovatsiyalar** – bu “fan ichida” yoki uni o‘qitish metodikasidagi innovatsiyalardir. Masalan, mallifning xususiy o‘qitish usullarini joriy etish va turli mutaxassisliklar bo‘yicha yangi o‘quv-metodik majmualarni yaratish;
- **umummetodik innovatsiyalar** – yangi universal texnologiyalarning joriy etilishi ularni har qanday sohada qo‘llashga imkon beradi. Masalan, talabalar uchun ijodiy topshiriqlarni yaratish va OTMda o‘qitishni talabalarning mustaqil ishlariga yo‘naltirish, shuningdek masofaviy ta‘limdan foydalanish;
- **mafkuraviy innovatsiyalar** – talabalar ongining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan o‘zgarishlar. Masalan, talabalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘rgatish, chunki endigina biron bir ishga murojaat qilgan va AKT bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lmagan mutaxassisdan samara kutib bo‘lmaydi;
- **ma‘muriy innovatsiyalar** – turli darajadagi menejerlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar, bu oliy ta‘lim muassasasini boshqarish samaradorligining oshirishga olib keladi.

Bunday yangilikni OTM menejmentida sifat menejmenti tizimlarini (SMT) keng joriy etish deb hisoblash mumkin.

Bizning fikrimizcha, OTM faoliyatida innovatsiyalarning quyidagi turlariga urg'u berish lozim, bu o'quv jarayoni samaradorligini oshirish, ta'lim sifatini yuksaltirish va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlashning zarur shartidir (1-rasm).



1-rasm: Milliy innovatsion tizimida OTM faoliyatidagi innovatsiyalar

Ta'lim sifatini oshirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash OTM innovatsion faoliyatining asosiy maqsadi deb hisoblagan holda, dissertatsiyada innovatsion ta'lim faoliyatining quyidagi asosiy printsiplari taklif etiladi:

- OTMdagi ilmiy va ta'lim jarayonlarning birligi va ularning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yo'naltirilganligi;
- OTMning o'zini o'zi boshqarish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish usullarining maqbul kombinatsiyasi;
- barcha turdagi resurslarni innovatsion ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishlariga jamlash;
- talabalar o'rtasida innovatsion ongni rivojlantirish va tarqatish;
- ilmiy-innovatsion sohadagi tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- OTMning xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyalashuvi.

Taklif etilgan tamoyillarga asosan OTM innovatsion rivojlanishining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

1. OTMning innovatsion potentsialini rivojlantirish (kadrlar, o'quv, ilmiy, moddiy-texnik va boshqalar).
2. OTMda qulay innovatsion muhitni yaratish.
3. OTM professor-o'qituvchilari va talabalari o'rtasida innovatsion ong va innovatsion madaniyatni shakllantirish.

Fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasiga asoslangan OTM rivojlanishi innovatsion modelining o'ziga xos xususiyatlari sifatida esa quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratamiz:

- talabalarni tegishli amaliyotga jalb qilish orqali tadqiqot va innovatsiyalarning asosiy tushunchalariga ega bo'lish;
- ta'limning tadqiqot va innovatsiya bilan uyg'unligi;
- buyurtmalar va fundamental g'oyalarni izlashda iqtisodiyotning real sektori bilan yaqin hamkorlik qilish;
- innovatsion tashkilotlarni yaratish.

Ta'lim xizmatlari bozorining hozirgi holati, umuman olganda, innovatsion ta'lim mazmunini tashkil etuvchi OTM faoliyati turli innovatsiyalardan foydalanishni taqozo qiladi. Bunday holda, ta'lim xizmatlari bozorida OTMning innovatsion rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillarni o'rganishga alohida e'tibor berilishi kerak.



XULOSA VA TAVSIYALAR

Ta'lim xizmatlari bozorini iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan o'rganilsa, har qanday bozor talab, taklif va narx singari uchta asosiy unsumni o'z ichiga olishi ma'lum bo'ladi. Albatta, bu uch element o'zaro sog'lom raqobat munosabatida bo'ladi. Shuning uchun biz yuqoridagi qarashlarga qo'shilgan holda "...ta'lim xizmatlari bozori bu yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari: fuqarolar, tashkilotlar, davlat va turli ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini ko'rsatish borasidagi o'zaro munosabati" ekanligini ham ta'kidlaymiz.

O'quv faoliyatining yakuniy mahsuloti shaxsdagi o'zgarishlar, olingan bilimlar, rivojlangan qobiliyatlar, ta'lim oluvchining umumiy va kasbiy kompetensiyalari o'zgarishidir.

Ta'lim tizimi muassasa va tashkilotlari ta'lim xizmatlari bozorining sub'ektlaridir, ularning boshqa sub'ektlardan asosiy farqi shundaki, iste'molchilar ishlab chiqarishda bevosita o'z mahsulotlari bilan ishtirok etadilar hamda ko'zlangan natijaga erishadilar. Chunki sifatli ta'lim olish ta'lim xizmati iste'molchilariga ham bog'liq. Shu bilan birga, ushbu xizmatlardan foydalanuvchilarga qo'shimcha ta'lim xizmatlarini taqdim etishni oliy ta'lim muassasasining mavjud innovatsion salohiyatidan foydalanishni ko'zda tutgan holda ko'rib chiqish kerak.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ta'lim xizmatlarining mazmuni va tabiati o'zgarishi oliy ta'limning faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanishida bozor mexanizmlarining o'sib borishi uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasi zamonaviy iqtisodiyotidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning muhim tizimidir. U barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi, hamda mamlakatda qulay ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratadi, mahalliy tovarlar va xizmatlarning ichki hamda tashqi raqobatdoshligini oshiradi. Bozorlararo jahon iqtisodiy aloqalarini chuqurlashtirishda, shuningdek, global ta'lim makoniga kirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi. – T.: "Sharq" nashriyoti, 2020-yil 25-yanvar, №19 (7521), 2-4 betlar.
2. Иванова Н. И. Национальные инновационные системы / Н. И. Иванова. – М.: Наука, 2002. –с. 55.
3. Алишер Ф.Р., Тростянский Д.В. Современные аспекты обеспечения экономической безопасности Узбекистана //Journal Экономика региона. -№2. -С.277-285.
4. Maxmudov N.M., Avazov N.R. (2019). O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari. Toshkent: Iqtisodiyot.Sh.I., M. (2017). Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. Toshkent: "Ma'naviyat" O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.
5. Tuxliyev I.S. Milliy innovatsion tizimni shakllantirish va rivojlantirish omillari //Iqtisod va innovatsion texnologiyalar – ilmiy elektron jurnal. 2020. -№5. Sentabr-oktabr.
6. Sharipov Q. Vaziyatli markaz iqtisodiyotni rakamlashtirish sharoitida oliy ta'lim sifatini oshirish omili sifatida //Arxiv nauchnix issledovaniy. – 2020. –№27.
7. Usmonov B. Universitet ilmining milliy innovatsion tizimga qo'shilishiga misol. Ilmiy-metodik to'plam, 2015 yil 3-son, 66-75-bet. Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Erasmus + milliy ofisi.
8. Shumpeter J. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. –M: Progress, 1982 . S.54.
9. Santo B. Innovatsiya iqtisodiy rivojlanish vositasi sifatida / Per. vengar bilan. - M .: Progress, 1990.164s
10. Titov A.B. Innovatsiyalarni boshqarishning tashkiliy usullari. – Sankt-Peterburg: nashriyoti – yilda SPSUEF , 1998.138.
11. Медынский В.Г., Ильдеменов С.В. Реинжиниринг инновационного предпринимательства – Учебное пособие, 1999: Издательство: "Юнити", стр. 414
12. O'zbekiston: jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, innovatsion taraqqiyot va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish / O'zFA, Iqtisodiyot instituti. A.F.Rasulevning tahriri ostida monografiya. – T.: Konsauditinform-Nashr, 2011. – 408 b.
13. Балабанов И.Т. Инновацияларни бошқариш. - Санкт-Петербург: Петер, 2009. 100-стр
14. Н.М.Махмудов. Интеллектуал салоҳият ва педагогик маҳорат, инвестиция – инновацион ривожланишнинг асоси. // Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2020, № 3.7 б.
15. Кочетов, А. И. По поводу развития инновационных способностей / А. И. Кочетов // Высшее образование в России. –1997. – № 5. –С. 94-98
16. Belyakov S.A., Ivanova A.A. Ta'limni boshqarish tizimini davom ettirish / S.A. Belyakov, A.A. Ivanova // Universitetni boshqarish: amaliyot va tahlil. 2010. № 3 (55). S.74-81.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.